

**BRONXIAL ASTMA BILAN BEMORLARDA TUNGI
SIMPTOMLARNING UCHRASH CHASTOTASI VA KASALLIK
NAZORATI DARAJASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK**

Xasanov Farruhbek Shakiraliyevich

CAMU Pulmonologiya yo‘nalishi bo‘yicha

1-bosqich klinik ordinatori

Mavzuning dolzarbligi: Bronxial astma dunyo miqyosida eng keng tarqalgan surunkali respirator kasalliklardan biri bo‘lib, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, millionlab bemorlarning hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kasallikning asosiy klinik ko‘rinishlari orasida nafas qisishi, hansirash, ko‘krak qafasida siqilish hissi va yo‘tal kuzatiladi. Mazkur simptomlarning tungi va erta tonggi soatlarda kuchayishi bronxial astmaning yetarli nazorat qilinmayotganligini ko‘rsatuvchi muhim klinik marker hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar bronxial astma bilan og‘rigan bemorlarda tungi simptomlarning uchrash chastotasi kasallik og‘irligi, bronxial giperreaktivlik darajasi, havo yo‘llaridagi surunkali yallig‘lanish faolligi hamda kasallik nazorati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Tungi simptomlar nafaqat uyqu sifatining buzilishiga, balki kunduzgi faollikning pasayishiga, mehnat qobiliyatining kamayishiga, tez-tez shoshilinch tibbiy yordamga murojaat qilish va kasalxonaga yotqizilish xavfining ortishiga ham sabab bo‘ladi. Bronxial astmada sirkadiyal ritm bilan bog‘liq patofiziologik o‘zgarishlar, jumladan tungi vaqtda bronxlar tonusining oshishi, kortizol sekretsiasining kamayishi, vagal ta’sirning kuchayishi va yallig‘lanish mediatorlarining faollashuvi natijasida nafas yo‘llari obstruksiyasi kuchayadi. Shu sababli tungi simptomlar kasallikning nazorat darajasini baholashda muhim diagnostik va prognostik mezon sifatida qaraladi. Global Initiative for Asthma (GINA) tavsiyalariga muvofiq, oxirgi 4

hafta davomida tungi uygʻonishlarning mavjudligi bronxial astma nazoratini baholovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Biroq amaliy sogʻliqni saqlash tizimida ayrim hollarda tungi simptomlarning klinik ahamiyati yetarlicha baholanmaydi, bu esa kasallik nazoratining notoʻgʻri baholanishiga va davolash taktikasining samarasiz boʻlishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan bronxial astma bilan bemorlarda tungi simptomlarning uchrash chastotasi hamda ularning kasallik nazorati darajasi bilan oʻzaro bogʻliqligini oʻrganish, nazoratning klinik mezonlarini takomillashtirish, xavf guruhidagi bemorlarni erta aniqlash va individual davolash strategiyalarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Bronxial astma bilan ogʻrigan bemorlarda tungi simptomlarning uchrash chastotasini aniqlash, ularning kasallik nazorati darajasi, klinik kechishi va bemorlarning hayot sifatiga taʼsirini baholash hamda tungi simptomlar bilan astma nazorati koʻrsatkichlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish. Shuningdek, tungi simptomlarning kasallikning nazorat qilinmasligi, tez-tez zoʻrayishlar rivojlanishi va davolash samaradorligini baholashdagi prognostik ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqot bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda tungi simptomlarning uchrash chastotasi va kasallik nazorati darajasi oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqotda pulmonologiya boʻlimida davolanayotgan va ambulator kuzatuvda boʻlgan 150 nafar bronxial astma bilan bemor ishtirok etdi. Tekshirilgan bemorlarning 85 nafari ayollar, 65 nafari erkaklar boʻlib, ularning yoshi 18 yoshdan 65 yoshgacha boʻlgan oraliqni tashkil etdi. Tadqiqotga bronxial astma tashxisi klinik belgilar, anamnestik maʼlumotlar, laborator tekshiruvlar va tashqi nafas faoliyati koʻrsatkichlari asosida tasdiqlangan bemorlar kiritildi. Oʻtkir respirator infeksiyalar, pnevmoniya, sil kasalligi, surunkali obstruktiv oʻpka kasalligi, ogʻir yurak yetishmovchiligi hamda boshqa ogʻir somatik kasalliklarga ega bemorlar tadqiqotdan

chiqarildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida bemorlarning shikoyatlari va anamnezi batafsil o'rganildi. Bunda nafas qisishi, bo'g'ilish xurujlari, quruq yo'tal, ko'krak qafasida siqilish hissi, allergik kasalliklarning mavjudligi, irsiy moyillik va kasallik davomiyligiga alohida e'tibor qaratildi. Kasallik davomiyligi 1 yildan 20 yilgacha bo'lgan bemorlar tekshiruvdan o'tkazildi. Tungi simptomlarni baholashda bemorlarning tungi uyg'onishlari, tungi yo'tal, bo'g'ilish xurujlari va nafas qisishi holatlari hisobga olindi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra 45 nafar bemorda tungi simptomlar kuzatilmagan, 52 nafar bemorda haftasiga 1–2 marta, 33 nafar bemorda haftasiga 3–4 marta va 20 nafar bemorda haftasiga 5 martadan ortiq kuzatilgan. Kasallik nazoratini baholashda kunduzgi simptomlarning uchrash chastotasi, tungi simptomlarning mavjudligi, jismoniy faollikning cheklanishi, bo'g'ilish xurujlari soni, shoshilinch tibbiy yordamga murojaatlar soni hamda bronxlarni kengaytiruvchi preparatlardan foydalanish darajasi inobatga olindi. Natijada 55 nafar bemorda kasallik nazorat ostida, 58 nafar bemorda qisman nazorat ostida va 37 nafar bemorda nazorat qilinmayotgan astma aniqlanib, ular alohida guruhlariga ajratildi. Barcha bemorlarda tashqi nafas faoliyati tekshirildi. Tekshiruv davomida bir soniyadagi majburiy nafas chiqarish hajmi, o'pkaning tiriklik sig'imi va bronxlar o'tkazuvchanligi ko'rsatkichlari baholandi. Bronxial obstruksiya darajasini aniqlash maqsadida bronxolitik sinamalar ham o'tkazildi. Olingan natijalar klinik simptomlar bilan solishtirildi. Laborator tekshiruvlar doirasida qonning umumiy tahlili, leykotsitlar soni, eozinofillar miqdori, eritrotsitlar cho'kish tezligi hamda allergik yallig'lanish faolligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar o'rganildi. Eozinofiliya kuzatilgan bemorlarda tungi simptomlarning uchrash chastotasi alohida tahlil qilindi. Bundan tashqari, allergik rinit, atopik dermatit va boshqa allergik kasalliklarning mavjudligi ham baholandi. Tadqiqot davomida bemorlarning yashash sharoiti, zararli odatlar, kasbiy zararlar, uy changi, gul changlari, hayvon jini va boshqa allergenlar bilan kontakt darajasi ham

o'rganildi. Tungi simptomlarning kuchayishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ular kasallik nazorati darajasi bilan taqqoslandi. Olingan natijalar statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Bemorlar guruhlarini o'rtasidagi farqlar, tungi simptomlarning uchrash chastotasi va kasallik nazorati darajasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Shuningdek, tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlari hamda laborator o'zgarishlarning tungi simptomlar bilan o'zaro aloqasi baholandi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalariga ko'ra, tekshirilgan 150 nafar bronxial astma bilan bemorning 105 nafarida tungi simptomlar turli darajada kuzatildi. Jumladan, 52 nafar bemorda tungi simptomlar haftasiga 1–2 marta, 33 nafar bemorda 3–4 marta, 20 nafar bemorda esa haftasiga 5 martadan ortiq qayd etildi. 45 nafar bemorda tungi simptomlar aniqlanmadi. Kasallik nazorati baholanganda 55 nafar bemorda astma nazorat ostida, 58 nafar bemorda qisman nazorat ostida va 37 nafar bemorda nazorat qilinmayotganligi aniqlandi. Tungi simptomlar kuzatilmagan bemorlarning aksariyatida kasallik nazorat ostida bo'lib, ushbu guruhdagi 45 bemorning 34 nafari nazorat ostidagi guruhga mansub ekanligi qayd etildi. Haftasiga 1–2 marta tungi simptomlar kuzatilgan 52 nafar bemorning 30 nafarida kasallik qisman nazorat ostida, 12 nafarida nazorat ostida va 10 nafarida nazorat qilinmayotgan holatda ekanligi aniqlandi. Haftasiga 3–4 marta tungi simptomlar kuzatilgan 33 nafar bemorning 18 nafarida qisman nazorat ostidagi, 15 nafarida esa nazorat qilinmayotgan astma qayd etildi. Eng yuqori ko'rsatkich haftasiga 5 martadan ortiq tungi simptomlar kuzatilgan bemorlar guruhida aniqlandi. Ushbu guruhdagi 20 nafar bemorning 18 nafarida kasallik nazorat qilinmayotgan, 2 nafarida esa qisman nazorat ostidagi astma kuzatildi. Bu holat tungi simptomlar sonining ortishi bilan kasallik nazorati darajasining pasayib borishini ko'rsatdi. Spirometrik tekshiruvlar natijasida tungi simptomlari tez-tez uchraydigan bemorlarda bronxial obstruksiya ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Nazorat

qilinmayotgan astma guruhidagi bemorlarning ko'pchiligida nafas yo'llari o'tkazuvchanligining pasayishi kuzatildi. Shuningdek, ushbu guruhda bo'g'ilish xurujlari va qisqa ta'sir etuvchi bronxlarni kengaytiruvchi preparatlarga ehtiyoj boshqa guruhlarga nisbatan ko'proq qayd etildi. Laborator tekshiruvlarda 48 nafar bemorda eozinofillar miqdorining oshganligi aniqlanib, ularning aksariyatida tungi simptomlar haftasiga kamida 3 marta kuzatilgan. Allergik fon mavjud bo'lgan bemorlarda ham tungi simptomlar nisbatan ko'proq uchrashi qayd etildi. Olingan natijalar bronxial astmada tungi simptomlarning uchrash chastotasi kasallik nazorati darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tungi simptomlarning ortishi kasallikning nazorat qilinmasligi, bronxial obstruksiyaning kuchayishi hamda bemorlarning hayot sifatining pasayishi bilan kechishi aniqlandi.

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqot natijalari bronxial astma bilan bemorlarda tungi simptomlarning uchrash chastotasi kasallik nazorati darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tungi simptomlar kuzatilgan bemorlarda kasallikning qisman nazorat ostidagi va nazorat qilinmayotgan shakllari sezilarli darajada ko'proq uchradi. Ayniqsa, haftasiga bir necha marotaba kuzatiladigan tungi bo'g'ilish xurujlari, yo'tal va nafas qisishi bronxial obstruksiyaning kuchayishi hamda tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlarining pasayishi bilan kechishi aniqlandi. Tadqiqot davomida tungi simptomlarning ortib borishi bilan bemorlarning klinik holati yomonlashishi, bronxlarni kengaytiruvchi preparatlarga ehtiyojning oshishi va kasallik nazoratining pasayishi kuzatildi. Shuningdek, eozinofiliya va allergik fon mavjud bemorlarda tungi simptomlar nisbatan ko'proq uchrashi qayd etildi. Olingan natijalar bronxial astmada tungi simptomlarni muntazam baholab borish kasallik nazoratini aniqlashning muhim mezonlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Tungi simptomlarni erta aniqlash va ularni nazorat qilishga qaratilgan davolash choralarini optimallashtirish kasallik

zo'rayishlari sonini kamaytirish, bemorlarning hayot sifatini yaxshilash hamda bronxial astma ustidan samarali nazoratga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdibekov X.I., Ibragimov S.X., Kayumova Sh.Sh. Astma bo'yicha xalqaro tashabbuskorlik (GINA) tavsiyalariga kirgan asosiy o'zgarishlar va ularning ahamiyati. – Science and Education, 2025. – №1. – B. 71–79.
2. Turdibekov X.I., Axmedov A.A., Omonov A.A., Fazlitdinova K.I. Bronxial astma shakllanishining molekulyar-genetik asoslari. – Science and Education, 2024. – №3. – B. 153–159.
3. Irsaliyeva F.X., Nizomov Q.F., Zubaydullayeva M.T. Bronxial astma kasalligida hamshiralik yondashuvi. – Toshkent, 2018. – 96 b.
4. Ergasheva D.Sh., Xudoyqulov E.A., Tashmatova G.A. Bolalarda bronxial astma va oziqlanish traktidagi buzilishlarning o'zaro bog'liqligi: klinik-funksional jihatlar. – Medical Science of Uzbekistan, 2025. – №6. – B. 113–116.
5. Turdiyev F.Sh. Bronxial astma kasalligi bilan kasallangan bolalarda semirishning kasallik kechishiga ta'siri. – Journal of Science in Medicine and Life, 2025. – №12. – B. 7–9.
6. BRONXIAL ASTMA. – Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy to'plami, 2024. – B. 45–52.
7. Авдеева Е.В., Потапов В.И., Павлушенко Е.В. Внутрисемейные факторы риска развития бронхиальной астмы. – Пульмонология, 2003. – №3. – С. 83–88.